
“Zamonaviy Turkiya: tarix, huquq va siyosat” nomli o‘quv qo‘llanma nashr etildi

O’zR FA Davlat va huquq instituti tomonidan “Zamonaviy Turkiya: tarix, huquq va siyosat” nomli o‘quv qo‘llanma nashr etildi.



Mazkur o’quv qo’llanmada zamonaviy Turkiya respublikasi, qadimgi turk zamini, uning boy va sermazmun tarixi, hozirgi davlatchilik an’analari, huquqiy tizim, davlat va huquqning rivojlanish tendensiyalari, qonunchilikdagi islohotlar, ichki va tashqi siyosatni amalga oshirish yo’nalishlari, prezidentlik respublikasining joriy etilishi hamda mamlakatning islom dunyosida tutgan o’rni bilan bog’liq jarayonlar,

huquqni muhofaza etish organlari amaliyoti, mamlakatning favqulodda vaziyatlarni oldini olish tajribasi chuqur o’rganiladi, ommaviy axborot vositalari bilan bog’liq jarayonlar yangicha yondashuv asosida bosqichlarga bo’lib tahlil etiladi.

Bundan tashqari, mazkur asarda Turkiyaning iqtisodiy va turistik salohiyati to’g’risida e’tiborga loyiq ma’lumotlar keltiriladi.

Turkiya davlati va huquqi tarixini o’rganishga bel bog’lagan huquqshunoslar, talabalar, turkshunoslar, izlanuvchilar va turk zamini bilan qiziquvchilar hamda keng kitobxonlar ommasiga mo’ljallangan.